

ARAB TILINING O'ZIGA XOSLIGI

*Andijon davlat chet tillari instituti ingliz tili
filologiyasi, o'qitish metodikasi va
tarjimashunoslik fakulteti sharq tillari (arab tili)
yo'nalishi 102-guruhi talabasi
Alijonova Rayyona Nabijon qizi
Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U.S.***

Annotatsiya: Arab tili dunyodagi tillar ichida ko'p o'rganilgan va hanuz o'rganilayotgan tildir. Lug'at boyligi, bir kalimani bir necha uslubda ishlatish imkoniyatlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada arab tilining struktaviy va lingvistik xususiyatlari, shuningdek, uning xalqaro ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *arab tili, lingvistik, Qur'on tili, alifbo, kalima.*

Annotation: Arabic is one of the most widely studied and still widely studied languages in the world. It is distinguished by its rich vocabulary and the many possibilities of using one word in several ways. This article discusses the structural and linguistic features of the Arabic language, as well as its international significance.

Key words: *Arabic language, linguistics, Quranic language, alphabet, word.*

Аннотация: Арабский язык — один из самых изученных и продолжающих изучаться языков мира. Он отличается богатым словарным запасом и многочисленными возможностями использования одного слова в разных значениях. В данной статье рассматриваются структурные и лингвистические особенности арабского языка, а также его международное значение.

Ключевые слова: *Арабский язык, языкознание, коранический язык, алфавит, слово.*

Arab tili o'zining xilma-xil shakllari bo'yicha o'ziga xos estetikaga ega: mumtoz tildan tortib dialektalgacha, ham og'zaki nutqda, ham she'riyatda, hatto xattotlikda

ham. Arab tilining bu estetikasi me'morchilikda, she'riyatda, falsafada, musiqada ham o'z ifodasini topdi. Arab tili o'ziga xoslik va e'tiqodlarning ajoyib xilma-xilligini taqdim etadi va uning tarixi boshqa tillar bilan yaqin aloqada ekanligini ko'rsatadi¹.

Bu til Qur'oni karim tili, janob Payg'ambar (sallallohu alayhi va sallam) tillari bo'lgani uchun ham uni o'rganish yo'llari ilgarigi zamonlardayoq ishlab chiqilgan².

Arab tilini o'rganish uchun ham boshqa tillarni bilib olish uchun kerak bo'ladigan fonetika-grammatika, ya'ni sarf va nahv ilmi mukammal o'rganiladi. Arab tili ko'p asrlar davomida keng hududlarda bilim tili bo'lib kelgan. Arab tili tibbiyot, she'riyat, matematika, astronomiya va boshqa fanlarning ham tilidir³.

Endi lingvistik nuqtai nazardan, arab tilining nechog'lik mukammal til ekanligini bilish uchun insonning mohiyatini tushunishda arab tiliga murojaat qilaylik. "Inson" – انسان "Ko'rish" – اناس so'zidan olingan. Odamlar odamlar deb ataladi, chunki ular jinlardan farqli o'laroq ko'rinadi. Jin so'zi esa janna جَن fe'lidan olingan bo'lib, "yashirish", "yopish" degan ma'noni anglatadi. Bunda so'zlarning qanchalik o'rinli hamda ma'nolariga mos tanlanishi va nomlanishini ko'rish mumkin⁴.

Shuningdek, arab tilining yana bir xususiyatiga nazar solib uning boshqa tillardan farq qilishini ko'rish mumkin. Chet tillarini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud, ular hatto bu jarayon davomida miya hajmi oshib borishini aytishadi. Ayniqsa, arab tiliga kelganda, ba'zi tadqiqotchilar arab tili bilan shug'ullangan miyani odatdagidan farqli ravishda ishlaydi, u asosan chap yarim sharni ishlatadi, deb ta'kidlaydilar⁵.

Yana shuni ham ta'kidlash joizki, arab harflari va ularning o'ziga xos xususiyatlari arab tilining tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Arab tilining alifbosida 28 ta harf mavjud. Qiziqarli jihati shundaki, ularning barchasini undosh tovushlar tashkil qiladi. Harflar o'qilish, yozilish va talaffuz qilish jihatlaridan va alifboda unli harflar

¹ Husanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2019.

² Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.

³ Maqsudov A. Arab harflari va ularning tashkiliy strukturasi. – Toshkent, 2020.

⁴ www.arabic.uz

⁵ www.ziyouz.com

yo'qligi bilan boshqa harflardan farq qiladi. Arab tilidagi harflar o'ngdan chapga yoziladi va o'qiladi. Eng ahamiyatlisi arab tilidagi zod harfi va uning talaffuzi hech bir tilda mavjud emas⁶.

Kalima atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, arab tilining so'z boyligi shunchalik ko'pki, boshqa tillarda bitta harf deb qaralgan ba'zi harflar arab tilida 2-3 ta harf bo'lishi mumkin. Shunday ekan, har bir harf maxrajidan to'g'ri talaffuz etilmasa ma'nosi o'zgarib ketadi⁷.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, arab tilining ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqsak, arab tili o'ziga xos, individual xususiyatlarga ega bo'lib, uning uyg'unligi, mantiqiyliigi, minimalizmini namoyish etadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ularning barchasi arab tilini o'rganishda yordam beruvchi omillarga aylanadi. Arab tili Qur'on va boshqa barcha diniy ilmlarni tushunishning kalitidir, bu nafaqat arab tilida so'zlashuvchilar uchun, balki butun musulmonlar uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.
3. Maqsudov A. Arab harflari va ularning tashkiliy strukturasi. – Toshkent, 2020.

Axborot resurslari:

4. www.arabic.uz
5. www.ziyouz.com
6. www.oliymahad.uz
7. www.fledu.uz

⁶ www.oliymahad.uz

⁷ www.fledu.uz